

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH ZAMON TALABI.

*Sultonova Oydina Ibroyimovna**Buxoro Muhandislik Texnologiya instituti 3 bosqich talabasi.
oydinaibroyimovna@gmail.com*

Korrupsiya — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

(“KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TO‘G‘RISIDA”gi O‘ZBEKİSTON RESPUBLİKASINING QONUNI 3- moddasi)

Bugungi kunda korrupsiya deb atalmish poraxo‘rlik balosi bizning mamlakatimizdagina emas balki butun dunyoda dolzarb muammoligicha qolmoqda.

Korrupsiya so‘ngi yillarda butun yer yuzida og‘ir jinoyatlar sifatida qaralmoqda va munozarali masalaga aylanib bormoqda. Bu illat har turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyot rivojlanishiga to`sqinlik qiladi, bunday illatning iloji boricha oldini olmas ekanmiz jamiyatning birorta sohasi rivojlanmaydi. Korrupsiya aralashmagan birorta soha yo‘qliki biz uni tilga olsak, derli ko‘plab sohalar ichiga kirib borgan va bu rivojlanishga yil sayin to‘sinqilik qilishda davom etmoqda.

Yurtimizda korrupsiyaga qarshi bir qator qarorlar, farmonlar va dasturlar ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev Miromonovich Prezidentlikning ilk kunlaridanoq korrupsiya deb atalmish bunday illatga qarshi kurashish chora tadbirlarini ishlab chiqishdan boshladi. “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha bir qator vazifalar belgilab olindi. Mamlakatimiz tarixida tubdan o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi, yangi yangi sohalar bunyod bo‘ldi, chet mamlakatlar bilan import, eksport salohiyati kuchaytirildi, yangi ish o‘rnları yaratilib qanchadan qancha insonlarning bandligi ta’minlandi. Bularning barchasi aziz va mexribon xalqimizning tinch, osuda va farovon hayoti uchun xizmat qila boshladi, ammo ayrim odamlar oson pul topish va tezda boyib ketish maqsadida korrupsiya yo‘lini tanladi.

2003 yil 9 dekabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasi imzolangan va shu kun “xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” sifatida e’lon qilingan. Korrupsiyaga qarshi kurashish kunini tashkil etishdan maqsad bitta yagona barchasining zamirida insoniyat hayotini yaxshilash yotadi.

Oilada farzand atalmish ne’mat dunyoga kelar ekan ota va onaning quvonchi yeri ko‘kka sig‘maydi, solih va soliha farzandlar bo‘lsin deb chiroyli ismlar qo‘yadi, hech bir inson farzandim poraxo‘r bo‘lsin deb dunyoga keltirmaydi tarbiyalamaydi. Farzandlarimiz har tomonlama yetuk va barkamol bo‘lishida ota va onalarning o‘rni

katta, oila ham bir kichik jamiyat bu jamiyatda sog‘lom muhitni shakllantirish uchun har bir oila a’zosi kurashishi lozim, ya’ni farzandlarimizga poraxo‘rlik yomon illatligini og‘ir asoratlarga olib kelishini o‘ta og‘ir jinoyat ekanligini va hattoki Islom dinida bunday illatlar qoralanishini uqtirib borishimiz kerak.

Jamiyatda poraxo‘rlikni yengib bo‘lmaydi degan xato fikrlarni ham ongimizdan chiqarishimiz kerak, bu bizning eng katta kamchiligidir. Bu borada doim olg‘a intilishimiz, korrupsiyaga qarshi bирgalikda kurash olib borishimiz lozim shundagina bu illat mamlakat rivojiga to‘sinq bo‘la olmaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagи jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar qadam va qadam amalga oshirilmoqda bu keljakda albatta o‘zining mevasini beradi.

Keljakni korrupsiyasiz poraxo‘r insonlarsiz bir tasavvur qilaylik oila davrasida to‘kin dasturxon atrofida xamma jam, bozor rastalarida dehqon bobo yetishtirgan hamyonbop mahsulotlar, bepul va beminnat tibbiy xizmatlar, ta’limning sifatliligi, odil sudlov tizimi va eng muhim i nson qadrining buyukligi, bularning barchasi hayotiy bирgina misollardir.

Biz Prezidentimizning chiqargan farmon va qarorlarga asoslanib, ishlab chiqilgan qonunlar doirasida ish tutadigan bo‘lsak albatta yaqin keljakda korrupsiya balosidan sekin astalik bilan qutulib ketamiz, buning uchun barchamiz Prezidentimiz bilan bирgalikda olg‘a qadam bosib kurashamiz keljak avlodga bugungi kundanda yaxshi hayot taqdim etishga harakat qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TO‘G‘RISIDA Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 24-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2016-yil 13-dekabrda ma’qullangan O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
- 2.Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqiyoti va xalq farovonligini garovi. Toshkent, O‘zbekiston, 2017